

### XIII. DEMOGRAFIYA

#### Doimiy aholi soni

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-aprel holatiga 4 227,3 ming kishini tashkil etib, 2024-yil boshidan 18,8 ming kishiga ya’ni 0,4 % ga o’sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 549,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,6 %), qishloq aholisi soni 2 678,3 ming kishini (63,4 %) tashkil etdi.

E’tibor bering:  
2024-yil yanvar-mart  
oylarida

- Aholi soni **18,8 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **24,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **4,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **5,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,1 ming nafarni** tashkil etdi

**2024-yilning  
yanvar-mart oylarida**

Yil boshida  
Doimiy aholi soni  
**4 208 509 kishi**  
(2024-yil 1-yanvar holatiga)



**24,1** ming bola

Tug‘ilganlar soni



**4,5** ming kishi

O‘lganlar soni



**2,9** ming kishi

Ko‘chib kelganlar  
soni



**3,7** ming kishi

Ko‘chib ketganlar  
soni

Doimiy aholi soni

**4 227 310 kishi**

(2024-yilning 1-aprel holatiga)

**Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni<sup>1)</sup>  
(2024-yilning 1-aprel holatiga, ming kishi)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 227,3</b>	<b>1 549,0</b>	<b>2 678,3</b>
Samarqand sh.	587,8	587,8	-
Kattaqo'rg'on sh.	95,1	95,1	-
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	174,1	66,8	107,3
Bulung'ur	203,1	44,9	158,2
Jomboy	190,6	41,7	148,9
Ishtixon	277,2	74,3	202,9
Kattaqo'rg'on	295,0	55,3	239,7
Qo'shrabot	142,4	13,1	129,3
Narpay	228,2	67,0	161,2
Payariq	274,6	76,7	197,9
Pastdarg'om	385,0	98,5	286,5
Paxtachi	152,7	29,2	123,5
Samarqand	274,1	17,0	257,1
Nurobod	163,2	18,4	144,8
Urgut	562,0	235,8	326,2
Toyloq	222,2	27,4	194,8

<sup>1)</sup>dastlabki ma'lumot



## *Samarqand viloyati ijtimoiy iqtisodiy holati*

### **Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni (2024-yilning 1-aprel holatiga ming kishi)**

	2023-y.	2024-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
--	---------	---------	---

<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 137,8</b>	<b>4 227,3</b>	<b>102,2</b>
Samarqand sh.	575,6	587,8	102,1
Kattaqo'rg'on sh.	93,8	95,1	101,4

*tumanlar:*

Oqdaryo	170,1	174,1	102,4
Bulung'ur	198,5	203,1	102,3
Jomboy	186,0	190,6	102,5
Ishtixon	271,4	277,2	102,1
Kattaqo'rg'on	289,2	295,0	102,0
Qo'shrabot	139,7	142,4	101,9
Narpay	224,1	228,2	101,8
Payariq	268,3	274,6	102,3
Pastdarg'om	376,6	385,0	102,2
Paxtachi	150,4	152,7	101,5
Samarqand	268,6	274,1	102,0
Nurobod	160,0	163,2	102,0
Urgut	548,5	562,0	102,5
Toyloq	217,0	222,2	102,4


**Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati**

	<i>kishi</i>			<i>har 1 000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.<sup>1)</sup></i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.<sup>2)</sup></i>
Tug'ilganlar	25 244	24 075	-1 169	24,8	23,0
O'lganlar	4 434	4 463	29	4,4	4,3
Tabiiy o'sish	20 810	19 612	-1 198	20,4	18,7
Nikohlar	5 338	5 190	-148	5,2	4,9
Ajralishlar	1 145	1 133	-12	1,1	1,1

**Tug'ilish darajasi.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 24 075 bolani tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (25 244 bola) nisbatan 1 169 bolaga yoki 0,9 foizga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 23,0 promilleni tashkil qildi va 2023-yilning shu davrida ham (24,8 promille) ni tashkil qildi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari**

(yanvar-mart oylarida) (*1 000 aholi soniga nisbatan promille*)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning ayrim hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Narpay tumanida 18,9 dan 20,6 promillega ko'payishi kuzatilgan.

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot


<sup>2)</sup> dastlabki ma'lumot

**Tug‘ilish.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida 24,1 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 23,0 promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davrida ham 24,8 promille bo‘lganligi kuzatildi.

#### Ma’lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

#### Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti (2024-yilning yanvar-mart oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 4 463 kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (4 434 kishi) nisbatan 29 kishiga yoki 1,0 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2023-yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille).

**2024-yilning yanvar-mart oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha  
vafot etganlarning taqsimlanishi  
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)**



**O‘lim koeffitsientlari**




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darjasini Bulung‘ur tumanida (3,6 dan 4,6 promillega), Payariq tumanida (3,8 dan 4,7 promillega), Toyloq tumanida (3,4 dan 4,2 promillega), Narpay tumanida (3,7 dan 4,3 promillega), hamda Oqdaryo tumanida (3,6 dan 3,9 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 5,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti**  
(2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti  
(2024-yilning yanvar-mart oylari holatiga)**



**Nikohlar va ajralishlar.** 2024-yilning yanvar-mart oylari FHDYo organlarida 5 190 ta nikohlar va 1 133 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 4,9 promille nikoh (2023-yilning tegishli davrida 5,2 promille) va 1,1 promille ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida 1,1 promille) to'g'ri kelgan.

**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni  
(yanvar-mart oylarida, birlik)**

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	2023-y.	2024-y. <sup>2)</sup>	2023-y.	2024-y. <sup>2)</sup>
Samarqand viloyati	5 338	5 190	1 145	1 133
Samarqand sh.	572	504	209	209
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	97	94	45	34
Oqdaryo	210	201	32	68
Bulung'ur	281	278	51	55
Jomboy	267	277	52	37
Ishtixon	371	360	53	66
Kattaqo'rg'on	391	368	84	79
Qo'shabot	105	116	33	21
Narpay	228	282	64	54
Payariq	354	402	71	88
Pastdarg'om	523	514	123	111
Paxtachi	151	166	56	49
Samarkand	276	261	86	79
Nurobod	205	196	35	24
Urgut	1 018	850	89	101
Toyloq	289	321	62	58

**Migratsiya<sup>1</sup> (Ichki va tashqi).** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 924 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3 735 kishini tashkil qilgan.

#### Aholi migratsiyasi (kishi)


	2023-yilning yanvar-mart oylarida		2024-yilning yanvar-mart oylarida	
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Migratsiya saldosi
	2 549	3 793	-1 244	2 924
				3 735
				-811

2024-yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig'i minus 811 kishiga (2023-yilning shu davrida minus 1 244 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Paxtachi (minus 240), Urgut (minus 155) va Narpay (minus 155) tumanlarida kuzatilgan.


#### yanvar-mart oylarida

**soni, ming kishi**

##### Ko'chib kelganlar



##### Ko'chib ketganlar



<sup>1</sup> Shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

<sup>2)</sup> dastlabki ma'lumot



## Samarqand shahridagi demografik holat



Samarqand shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-aprel holatiga 587,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 2,6 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan.

### Samarqand shahri aholisining tabiiy harakati (1 000 aholiga nisbatan promille)



2024-yilning yanvar-mart oylarida 3,0 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 20,4 promilleni tashkil etdi (2023-yilning mos davrida 21,6 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2024-yilning yanvar-mart oylarida 504 ta nikoh va 209 nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 3,5 promilleni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaygan (2023-yilning mos davrida 4,0 promille bo‘lgan ).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi. 2023-yilning mos davrida 1,4 promille bo‘lgan.

### Samarqand shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-mart holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

